

OILADA SOG`LOM PSIXOLOGIK MUHITNI YARATISHDA JAMIYATNING O`RNI

Absalamov Jo`rabek Fayzulla o`g`li, stajor-o`qtuvchisi
Xoljigitova Madinabonu Murotkasim qizi, talaba
Akramova Halima Umrniyoz qizi, talaba

jorabekabsalamov4@gmail.com

Annotatsiya: Har qanday jamiyat taraqqiyotida oilalarning, oilalar mustahkamligining o`rni beqiyosdir. Chunki tirik organizmning salomatligi uni tashkil qiluvchi har bir hujayraning sog`lomligiga bog`liq bo`lganidek, butun organizm o`z faoliyatini maqsadga muvofiq amalga oshirishida har bir hujayraning munosib o`rni bo`lganidek, oila ham davlat, jamiyat deb atalgan butun bir organizmni tashkil etuvchi hujayradir. Har bir oilaning sog`lom bo`lishi, ularda ijodiy psixologik iqlimni hukm surishi, mana shu muhitda dunyoga kelib, shaxs sifatida shakllanishib, so`ng o`zi yashayotgan davlatning fuqorasi sifatida o`z davlatining iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti taraqqiyotini ta`minlovchi, hal qiluvchi omil bo`lgan inson kamolotida oilaning tutgan o`rni beqiyosdir.

Kalit so`zlar. Oila psixologiyasi, jamiyat, oila, nikoh, oila kodeksi.

Inson bolasi dunyoga kelar ekan, u mustaqil harakatlanish, yurish, o`qish, yozishdan boshlab tabiat va jamiyatning barcha murakkab qonunlari bilan yuzmayuz kelganda nimalar qilish kerakligiga o`rgatiladi yoki bunga maxsus o`qitiladi. Ma'lumki, hayotimizning yarmidan ko`pini qamrab oladigan, chinakam, to`laqonli insoniy baxtni in`om etadigan yoki aksincha, har tomonlama ta`minlanganligimizga qaramasdan, bizning baxtimizni yarimta qiladigan ham oilaviy hayotdir.

Sobiq Ittifoq davrining so`nggi bosqichlarida yoshlarni oilaviy hayotga maxsus tayyorlashga dastlabki urinish ham muvaffaqiyatsiz tugadi. Chunki u vaqtlarda masalaga ilmiy yondashilmagan, jumladan, har bir xalqning o`ziga xos etnopsixologik xususiyatlari hisobga olinmagan, nomi “psixologiya bo`lsa”da, mazmunan pedagogikaga yaqin turgan qo`llanmalar bilan o`qitilgan edi.

O`zbekiston mustaqilligi tufayli Respublikada oila muammolari davlat ahamiyatiga molik bo`lgan masalalar qatoridan rasmiy ravishda o`rin oldi.

1998-yilni “Oila” yili deb e`lon qilinishi, “Oila” ilmiy amaliy Markazining tashkil etilishi, Respublikada oila manfaatiga qaratilgan maxsus Davlat dasturining qabul qilinishi, uning mantiqiy davomi sifatida 1999-yilni “Ayollar yili” deb e`lon qilinishi, viloyatlarda oilaga xizmat qiluvchi turli maslahatxonalarining tashkil etilishi, oila muammolarini ilmiy tadqiq etish maqsadida O`zbekiston tarixida birinchi bor oila psixologiyasi muammolari bo`yicha tadqiqotlar Olib boradigan ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida aspirantura tashkil etilishi, ularga aspirantlarning qabul qilinishi yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

Ma'lumki, insoniyat jamiyati taraqqiy etib borgan sari odamlarning o`zlari ham, ularning bir-birlari bilan bo`ladigan o`zaro munosabatlari ham, ayniqsa, shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo`lgan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o`ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi:

hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari taraqqiyoti, qishloq xo'jaligi, sanoat ishlab chiqarishi, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga ham o'ziga xos, yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar odamlarning o'zaro muloqot munosabatlari doirasini ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda ajdodlarimizda kuzatilgan tabiiylikni ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqtimda ham o'z ifodasini topadi.

Jamiyat hayotining o'zgarishi, ma'lum jihatdan oilaga, uning a'zolariga bog'liq bo'lganligi bois, bu muammoni o'rganish va tahlil etish dolzarb jarayon hisoblanadi. Har bir millat oila va u bilan bog'liq jarayonga alohida e'tibor qaratib, oila haqidagi bilimlarni, tasavvurlarni va qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazib kelmoqdalar.

Oila - ijtimoiy institut sifatida uning a'zolari yoshi, kasbi, farzandlarning soni, nikoh yoshi, er-xotinlarning milliy mansubligi, hududiy jihatdan yashash joyini inobatga olgan holda tasniflanadi va o'rganiladi.

Oiladagi muhitning sog'lomligi avvalo ayolga bog'liq bo'lganidek, jamiyatdagi ma'naviy muhitning sog'lomligi bevosita oilaga va oila tarbiyasiga ma'sul bo'lgan onaga bog'liqdir. Bo'lajak onalarimiz esa hozirgi kunning yosh qizlaridir. Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Abdulloh Rudakiyning "Qaysi bir millatni yakson qilmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarni tarbiyadan chiqaring. Qaysi bir millatni yuksaltirmoqchi bo'lsangiz, ularning qizlarini - bo'lajak onalarini chiroyli tarbiyaga, go'zal axloqqa o'rgating" degan fikri hozirgi kunning ham dolzarb mavzularidandir. Millatning qizlari ilmi, tarbiyali hamda aqlli, oilaviy hayotga nisbatan har tomonlama tayyor bo'lsa, oiladaga muhit ham sog'lom va oila mustahkam, farovon bo'ladi. Shuning uchun qizlarning oilaviy hayotga ma'naviy psixologik tayyorgarlik holati, ularning psixologik yetukligi muhim ahamiyatga egasidir.

Oila va uning jamiyat hayotidagi o'rni beqiyos bo'lib, Konstitutsiyaning 14-bobi maxsus oilaga bag'ishlangan.

63-modda. Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar. Davlat va jamiyat yetim bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, botalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarini rag'batlantiradi.

65-modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Oilalarning mustahkamligi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, milliy xavfsizligini, uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Yuqoridagilarni muxtasar qilib ta'kidlash mumkinki, tadqiqotimizda qatnashgan qizlarning oila haqidagi tushuncha va tasavvurlari mustahkam va barqaror oilaviy munosabatlarni ta'minlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy va psixologik jihatdan yetarli emasligi ayon bo'ladi. Ammo shunga qaramasdan, ularda mustahkam oila qurish istagi yuqoriligi kuzatiladi. Zero, ularning o'z oilaviy hayoti haqidagi tasavvurlari qanchalik reallikka yaqin bo'lsa, oila mustahkamligini ta'minlash imkoniyati shuncha oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // V.M. Karimova. – T.: “Fan va texnologiya”, 2008 – 170 b
3. Abu Nasr Farobiy “Fozil odamlar shahri”. Toshkent. Yangi asr avlodi-2016
4. Majidov J. Absalamov J. “MEHRIBONLIK UYI TARBIYALANUVCHILARI IJTIMOYLAHVIVNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI”. 2022.
5. <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6413>
6. Absalamov J. To'rayeva B. “МЕХРИБОНЛИК УЙЛАРИДА ТАРБИЯЛАНУВЧИЛАРНИНГ ИЖТИМОЙЛАШУВИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ” 2022-yil
<https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/6413>
7. O'risheva, P., & Jiyanberdiyev, M. (2023). PSIXOLOGIYA FANLARINI OQITISH JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AXAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
8. Umarova, N. S., & Pokiza, G. (2022). PSIXOLOGIK MADANIYAT SHAXS IJTIMOYLAHVIVI OMILI SIFATIDA. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(5), 207-212.
9. G'oziev E., To'laganova G. Pedagogik psixologiya asoslari: O'quv-metodik qo'llanma. – T.: «Universitet», 1997. – 80 b.
10. Мунарова. Р. Абсаломов Ж. «Психологические особенности социализации воспитанников детского дома» PERIODICA Journal of Modern Philosophy. Social Sciences and Humanities. 15.02.2023
11. Холматова М., Муравьева Н. Ёшлар оилавий ҳаёт бўсағасида –Тошкент: Ўзбекистон, 2000.
12. Akhmedov, B. A. (2021). Development of network shell for organization of processes of safe communication of data in pedagogical institutions. Scientific progress, 1(3), 113-117.